

TOSHKENT SHAHRIDA TEZ VA SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM XIZMATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI: 1918–1967-YILLAR TARIXIY TAJRIBASI

Ergasheva Muxlisa Soatttullayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada 1918–1967-yillarda Toshkent shahrida tez va shoshilinch tibbiy yordam xizmatining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy-tahliliy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Taqdim etilgan tarixiy va statistik ma'lumotlar asosida tez tibbiy yordam xizmatining tashkiliy rivojlanishi, sanitariya transporti bilan ta'minlanganlik darajasi, tibbiy kadrlar va shifoxona koyka fondi holati, shuningdek, ixtisoslashtirilgan tez tibbiy yordam brigadalarining tashkil etilishi tahlil qilingan. Ayniqsa, 1946–1966-yillarda Toshkent tez tibbiy yordam stansiyasi faoliyatining statistik dinamikasi, jumladan, chaqiruvlar, avtotransport vositalari, vrachlar va feldsherlar soni alohida o'rganilgan. Shuningdek, tez tibbiy yordam tizimida faoliyat yurituvchi tibbiy xodimlarni kasbiy tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *tez tibbiy yordam, shoshilinch tibbiy yordam, Toshkent, tez yordam xizmati, sanitariya transporti, vrach, feldsher, ixtisoslashtirilgan tez tibbiy yordam brigadasi, reanimatsiya, gospitalizatsiya, tibbiy kadrlar.*

Kirish

Tez va shoshilinch tibbiy yordam aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan sog'liqni saqlash tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi to'satdan yuzaga kelgan kasalliklar, hayot uchun xavfli holatlar, jarohatlar va baxtsiz hodisalarda imkon qadar qisqa vaqt ichida tibbiy yordam ko'rsatishdan iborat. Toshkent shahrida mazkur xizmatning shakllanishi va rivojlanishi shahar sog'liqni saqlash tizimining umumiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Taqdim etilgan tarixiy materiallarda qayd etilganidek, 1897-yilda Varshavada, 1898-yilda Peterburgda, 1902-yilda Kiyev va Orenburgda, keyinchalik esa Odessada tez tibbiy yordam stansiyalari tashkil etilgan. Biroq, Toshkentda inqilobga qadar tashkil etilgan tez tibbiy yordam tizimi yetarlicha shakllanmagan edi. M.I. Slonimning asarlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, shaharda tez tibbiy yordam xizmati bo'lmagan. Shahar Dumasida tez tibbiy yordam karetasini sotib olish masalasi bir necha yil davomida muhokama qilingan, ammo mablag' yetishmasligi sababli mazkur masala hal etilmagan. Shu nuqtayi nazardan, Toshkentda tez tibbiy yordam xizmatining tashkil etilishi shahar tibbiy infratuzilmasi rivojida muhim tarixiy bosqichlardan biri bo'lgan. Manbalarga ko'ra, Toshkentda tez tibbiy yordam xizmati

1918- yildan keyin shakllana boshlagan. 1918-yilda tez yordam punktida 12 ta ot mavjud bo'lgan bo'lgan. 1921-yil 1 avgust holatiga kelib otlar soni 37 taga yetgan. 1922-yil 1 yanvar holatiga ko'ra, tez yordam punktida uch nafar yordamchi assisent va bir nafar akusherka faoliyat yuritgan. Shu yilda punkt huzurida besh kishidan iborat dezinfeksiya otryadi tashkil etilgan bo'lib, unga lekpom N. Panteleyev rahbarlik qilgan. 1922-yilda Toshkent tez yordam punktining umumiy shtati 50 kishidan iborat bo'lgan. Ularning tarkibida 3 nafar lekpom, 12 nafar sanitar, 2 nafar telefonist, 2 nafar xaydovchi mavjud bo'lgan. 1922-yil oxiriga kelib shtat 55 kishiga yetkazilgan. Punkt ixtiyorida 1 ta avtomobil va 32 ta ot mavjud bo'lgan. Mazkur ma'lumotlar tez tibbiy yordam xizmatining dastlabki davrida sanitariya transporti asosan ot-arava vositalaridan iborat bo'lganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tez yodam xodimlari nafaqat bemorlarning uyida va ko'chada tibbiy yordam ko'rsatishgan, balki yuqumli kasalliklar bilan og'rikan bemorlarni tashish vazifasini ham bajargan. 1922-yil 23 sentabrda tez yordam karetsi chaqiruvlar bo'yicha 32 marta chiqish qilgan bo'lib, shundan 12 nafar bemorni gospitalizatsiya qilish rad etilgan. Bu holat o'sha davrda shahar shifoxonalar tarmog'idagi koyka fondi tanqisligi tez tibbiy yordam faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatganini anglatadi. 1923-yilda tez yordam punktida 41 kishi ishlagan. Ular orasida tungi navbatchilik uchun 3 nafar vrach, 5 nafar lekpom va 2 nafar dezinfeksiya otryadi xodimi bo'lgan. 1923- yil boshida tez yordam xizmatida rayon vrachlari N. Kremnev va R. Rapoport, navbatchi vrachlar I. Degtyarev, A. Vixert va P.P. Yevdokimov, lekpomlar P.F. Obuxov, M.P. Stets, D.D. Balandin hamda feldsher A.I. Balandina faoliyat yuritgan. 1923-yil 22 yanvarda lekpom V. Joglev punkt mudiri lavozimiga tayinlangan. 1924-yil oktabrda shoshilinch holatlarda malakali tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida shtatga 3 ta vrachlik lavozimi kiritilgan. Ushbu lavozimlarga R. Rapoport, A. Zorin va N. Bogin tavsiya etilgan. Shu davrda vrach E. Sozina birinchi marta tez tibbiy yordam punkti mudiri etib tayinlangan. 1925-yilga kelib Toshkentdagi tibbiy muassasalar tarmog'i hali nisbatan kichik edi. 1925-yil 1 oktabr holatiga shahar davolash tarmog'i tarkibida 490 o'rinli o'lka klinik shifoxonasi, 210 o'rinli Novogorodsk shifoxonasi, 75 o'rinli xirurgik shifoxona, 75 o'rinli bolalar shifoxonasi va 45 o'rinli tug'ruq muassasasi mavjud bo'lgan. Bundan tashqari, 200 o'rinli psixiatriya shifoxonasi ham faoliyat yuritgan. Bu davrda koyka fondining cheklanganligi tez tibbiy yordam xizmati orqali olib kelingan barcha bemorlarni gospitalizatsiya qilish imkonini bermagan. Ayniqsa, shaharning eski qismida vaziyat og'ir bo'lgan. Bu hududda 250 000 aholiga 150 o'rinli shahar shifoxonasi va 30 o'rinli ginekologiya shifoxonasi xizmat ko'rsatgan. Eski shahar qismida alohida tez yordam punkti mavjud bo'lmagan. 1926-yil oxiriga kelib shahar tibbiy tarmog'idagi koyka fondi bir yil ichida 19 foizga oshgan. 1926-yil davomida shahar statsionarlarida 22 438 kishi davolangan. 1927-yil aprel oyida yangi shahardagi tez yordam punkti shtati 78 kishidan iborat bo'lib, ularning 4 nafari vrach edi. Tez tibbiy yordam

xizmatining rivojlanishi bilan uning sanitariya transporti ham asta-sekin takomillashib borgan. Biroq 1930-yillarning boshlarida xizmat hali ham jiddiy kadrlar va transport muammolariga duch kelgan. 1931–1932-yillarda stansiyada 10 nafar vrach va 10 nafar lekpom ishlagan. 1931-yilda 9 597 nafar bemor va jarohatlangan shaxsga tibbiy yordam ko'rsatilgan bo'lsa, 1932-yilda bu ko'rsatkich 14 873 nafarni tashkil etgan. 1933-yilning birinchi yarmida esa 7 476 nafarga tibbiy yordam ko'rsatilgan. 1931-yilda 963 nafar bemorni hospitalizatsiya qilish rad etilgan. Bu ko'rsatkich tez tibbiy yordam xizmati va statsionar muassasalar o'rtasidagi munosabatlarda koyka fondi tanqisligi muhim muammolardan biri bo'lganini yana bir bor ko'rsatadi. 1935-yilda B.I. Berliner jabrlanganlarni voqea joyidan maxsus travmatologik statsionarga o'z vaqtida va to'g'ri tashish zarurligini ta'kidlagan. Buning uchun shahar tez tibbiy yordam xizmatini maxsus avtomashinalar, nosilkalar va standart shinalar bilan ta'minlash zarurligi qayd etilgan. 1936-yilda Toshkent tez tibbiy yordam stansiyasi Lenin rayonida, Jukovskiy ko'chasi 100-uydagi 1-sonli shahar shifoxonasi huzurida joylashgan. Stansiya shahar sog'liqni saqlash bo'limi tasarrufida bo'lib, 3 ta podstansiyaga ega bo'lgan. 1937-yilda stansiyada 27 ta avtomobil bo'lib, ular sutka davomida navbatchilik qilgan. Bir yilda 53 206 marta chiqish amalga oshirilgan va 45 810 holatda tibbiy yordam ko'rsatilgan. Stansiyadagi 45 ta vrachlik shtat birligidan 27 tasi, 84 ta o'rta tibbiy xodim shtat birligidan esa 60 tasi band bo'lgan. Shu davrda shoshilinch yordam muassasasida 292 ta koyka mavjud bo'lgan. Ularning 121 tasi terapevtik, 105 tasi xirurgik, 29 tasi ginekologik, 19 tasi ko'z kasalliklari va 18 tasi stomatologiya yo'nalishiga ajratilgan. 1939-yilda Toshkentda 2 ta tez yordam stansiyasi va 29 ta avtomashina mavjud bo'lgan. Shulardan 10 tasi tungi navbatchilikda ishlagan. Yil davomida 50 115 marta chiqish amalga oshirilib, shundan 44 066 tasi chaqiruvlar bo'yicha bo'lgan. Shu yilda sanitariya aviatsiyasi stansiyasi ham tashkil etilgan bo'lib, u respublika hududida tibbiy yordam ko'rsatgan. 1946–1966-yillar oralig'ida Toshkent tez tibbiy yordam stansiyasi faoliyatini uch bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich 1946–1954-yillarni qamrab oladi. 1949-yil 16 martdagi SSSR Sog'liqni saqlash vazirligining 16-sonli buyrug'iga muvofiq, sutka davomida tanaffussiz ishlaydigan har bir tez yordam avtomashinasiga 4,7 shtat vrach, 4,7 shtat feldsher va 3,5 shtat sanitarka belgilangan. Chaqiruvlar soni bo'yicha Toshkent stansiyasi tez yordam stansiyalarining I kategoriyasiga kiritilgan. Biroq, 1948-yilda chaqiruvlar soni 64 043 taga yetgani sababli stansiya kategoriyadan tashqari stansiya maqomiga yaqinlashgan. 1946–1954-yillar oralig'ida chaqiruvlar soni keskin o'sgan. 1946-yilda 41 100 ta bo'lgan chaqiruvlar 1954-yilda 125 385 taga yetgan. Demak, 8 yil davomida chaqiruvlar soni taxminan 3,2 baravar oshgan. Shu davrda sanitariya avtomashinalari soni ham ko'paygan bo'lsa-da, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam hajmining o'sishi transport va kadrlar resurslarining o'sishi bilan to'liq mutanosib bo'lmagan. 1946-yilda vrachlar bilan ta'minlanganlik 23,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1954-yilga kelib bu ko'rsatkich oshgan. Shunga

qaramay, vrachlar yetishmasligi tufayli ayrim vrachlik chaqiruvlariga feldsherlar chiqishga majbur bo'lgan. Ikkinchi bosqich 1955–1961-yillarni qamrab olgan. 1955-yilda SSSR Sog'liqni saqlash vazirligi Toshkent stansiyasiga kategoriyadan tashqari stansiya sifatida sutka davomida ishlaydigan avtomashinalar sonini 30 taga yetkazish imkonini bergan. 1957-yilda chaqiruvlar sonining kamayishi yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlarni tashish vazifasining sanitariya-epidemiologiya stansiyalariga yuklatilishi bilan izohlangan. 1961 yilda esa poliklinikalar va tibbiy punktlar huzurida shoshilinch tibbiy yordam punktlarining tashkil etilishi chaqiruvlar dinamikasiga ta'sir ko'rsatgan. Tez tibbiy yordam stansiyasi taraqqiyotining uchinchi bosqichi 1962–1966-yillarni qamrab oladi. Bu davrda xizmat ko'rsatish hajmining miqdoriy o'sishi bilan bir qatorda uning sifat va ixtisoslashuv darajasi ham oshgan. Manbalarda 1962-yilda 274 059 ta, 1963-yilda 310 450 ta, 1964-yilda 346 867 ta, 1965-yilda 370 807 ta chaqiruv qayd etilgan. Bu davrda vrachlar bilan ta'minlanganlik darajasi belgilangan me'yorning 46,1–53,7 foizi oralig'ida bo'lgan. O'rta tibbiy xodimlar, xususan, feldsherlar soni esa ayrim hollarda me'yordan yuqori bo'lgan. Vrachlar yetishmasligi sababli vrachlik chaqiruvlariga feldsherlar chiqishi davom etgan. 1963-yildan boshlab ixtisoslashtirilgan brigadalarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan. 1963-yil fevral oyidan 1967-yil yanvar oyigacha 8 ta ixtisoslashtirilgan brigada tashkil etilgan. Ushbu brigadalar uchun kadrlar ilmiy-tadqiqot institutlari, Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti hamda stansiyaning o'zida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tayyorlangan. Mazkur davrda ixtisoslashtirilgan xizmatlar uchun jami 32 nafar vrach va 29 nafar feldsher tayyorlangan. Ular orasida 6 nafar reanimator, 5 nafar anesteziolog, 2 nafar nevropatolog, 14 nafar elektrokardiolog, 2 nafar laborant-biokimyogar va boshqa mutaxassislar bo'lgan. Ayniqsa, miokard infarkti bilan og'rikan bemorlarga yordam ko'rsatuvchi hamda elektrokardiologik brigadalarining tashkil etilishi tez tibbiy yordamni ixtisoslashtirishda muhim qadam bo'lgan. Bundan tashqari, terminal holatlar va zaharlanishlarda yordam ko'rsatuvchi brigadalar, urologik hamda psixiatriya yo'nalishlaridagi brigadalar ham tashkil etilgan. Bolalarga sifatli shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida ixtisoslashtirilgan pediatriya podstansiyasi tashkil qilinib, unda sutka davomida ishlaydigan 4 ta pediatriya brigadasi faoliyat yuritgan. Tez tibbiy yordam xizmatining samaradorligi ko'p jihatdan malakali tibbiy kadrlar bilan ta'minlanganlikka bog'liq. Toshkent stansiyasi misolida esa kadrlar masalasi butun davr davomida eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolgan. 1967-yil 1 yanvar holatiga stansiyada 298 ta vrachlik va 342 ta feldsherlik stavkasi mavjud bo'lgan. Vrachlik stavkalarining faqat 206 tasi band bo'lib, bu 69,5 foizni tashkil etgan. Asosiy vrachlar 76,7 foizni, vrach-o'rindoshlar esa 23,3 foizni tashkil etgan. 1966-yilda bemorlarga feldsherlar tomonidan xizmat ko'rsatish ulushi 35 foizni tashkil qilgan. Barcha turdagi tibbiy yordam bo'yicha chaqiruvlarga kechikib borish holatlari 9,9 foizni tashkil etgan. Manbada vrach-o'rindoshlarning tez tibbiy yordam

xizmati talablariga har doim ham to'liq javob bermasligi, ular tomonidan tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish va tibbiy xizmat ko'rsatish sifati asosiy vrachlarga nisbatan pastroq bo'lgani qayd etilgan. Shuning uchun stansiya rahbariyati vrachlar yetishmasligi sharoitida o'rindosh vrachlar mehnatidan foydalanishga majbur bo'lgan. Kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida 1963–1967 yillar oralig'ida ixtisoslashtirilgan brigadalar uchun maxsus o'quvlar tashkil etilgan. 1966-yilda Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti bilan hamkorlikda tez va shoshilinch tibbiy yordam bo'yicha ishlab chiqarishdan ajralmagan holda kafedralararo sikl tashkil etilgan. 1964 yilda Respublika tibbiy bilim yurti bazasida o'rta tibbiy xodimlarni qayta tayyorlash maqsadida uch oylik tez va shoshilinch tibbiy yordam kurslari tashkil qilingan. Ularni 214 nafar o'rta tibbiy xodim tamomlagan. Toshkent tez tibbiy yordam stansiyasi taraqqiyotini tahlil qilish uning asosiy muammolari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir nechta omillar ta'sirida shakllanganini ko'rsatadi.

Birinchidan, sanitariya transporti yetishmasligi. 1946-yilda me'yori bo'yicha 24 ta mashina talab etilgan bo'lsa, amalda faqat 9 ta mashina ishlagan. 1954-yilga kelib mashinalar soni me'yori darajasiga yetkazilgan bo'lsa-da, chaqiruvlar soni transport imkoniyatlariga nisbatan ancha tez sur'atlarda o'sgan.

Ikkinchidan, vrachlar tanqisligi. 1962–1966-yillarda vrachlar bilan ta'minlanganlik me'yorning o'rtacha 49,3 foizini tashkil etgan. Bu esa tez tibbiy yordam xizmatida feldsherlarning yuklamasini oshirgan.

Uchinchidan, statsionarlar bilan uzviy aloqani kuchaytirish zarurati. Manba mualliflari stansiyaning shaharning yirik ko'p tarmoqli shifoxonalaridan biri bilan birlashtirish vrachlarning statsionar va tez tibbiy yordam xizmatlarida navbatma-navbat ishlashiga, shu orqali ularning bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirishga imkon berishini ta'kidlaganlar.

To'rtinchidan, ixtisoslashtirish zarurati. Tez tibbiy yordamning universal shaklidan ixtisoslashtirilgan xizmatlarga o'tish 1960-yillarda tizim taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Beshinchidan, kadrlarni uzluksiz tayyorlash. Tez tibbiy yordam vrachlari va feldsherlaridan qisqa vaqt ichida tezkor qaror qabul qilish, bemorga tashxis qo'yish hamda uni shifoxonaga yetkazgunga qadar zarur tibbiy yordamni ko'rsatish talab etilgan. Shuning uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish tizimi muhim ahamiyat kasb etgan.

Xulosa

Toshkent shahrida tez va shoshilinch tibbiy yordam xizmatining 1918–1967 yillardagi taraqqiyot tarixi mazkur tizimning oddiy tez yordam punktidan murakkab, ko'p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatga aylanganini ko'rsatadi. 1918–1920-yillarda xizmat asosan cheklangan moddiy imkoniyatlar, ot-arava transporti va kam sonli tibbiy xodimlar bilan faoliyat yuritgan bo'lsa, 1920-yillarning ikkinchi yarmi va

1930-yillarda sanitariya avtomobillari, tibbiy kadrlar va shifoxona bazasining rivojlanishi boshlangan. 1946–1954-yillarda chaqiruvlar soni 41 100 tadan 125 385 tagacha o'sgan. 1955–1961-yillarda esa xizmat hajmi yanada kengayib, 1960-yilda 179 301 ta chaqiruvga yetgan. Bu ko'rsatkichlar tez tibbiy yordamga bo'lgan ehtiyojning jadal sur'atlarda o'sganini ko'rsatadi. 1962–1966- yillar stansiya tarixida sifat jihatidan yangi bosqich bo'lgan. Bu davrda reanimatsiya, elektrokardiologiya, pediatriya, urologiya, psixiatriya va boshqa yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan brigadalar tashkil etilgan. Biroq, xizmatning jadal rivojlanishi kadrlar va transport ta'minotidagi muammolarni to'liq bartaraf eta olmagan. 1967 yil boshida ham vrachlik stavkalarining sezilarli qismi bo'sh qolgan. Shu sababli feldsherlarning vrachlik chaqiruvlarida ishtirok etishiga to'g'ri kelgan. Bu holat tez tibbiy yordam tizimi uchun maxsus tayyorgarlikka ega kadrlar sonini ko'paytirish zaruratini yuzaga keltirgan. Shunday qilib, Toshkent tez va shoshilinch tibbiy yordam xizmatining 1918–1967-yillardagi tajribasi uch asosiy yo'nalish moddiy-texnik bazani rivojlantirish, tibbiy kadrlar tayyorlash va shoshilinch tibbiy yordamni ixtisoslashtirish bilan tavsiflanadi. Mazkur tarixiy tajriba O'zbekistonda tez tibbiy yordam tizimining institutsional shakllanish va rivojlanish jarayonini o'rganish uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Камилов Ф.К., Бакиев А.Б. Некоторые данные из Ташкентской станции скорой помощи // *Скорая неотложная медицинская помощь*. – Тошкент: Медицина, 1966.
2. Фадеев А.С. Некоторые вопросы организации и развития станции скорой и неотложной медицинской помощи гор. Ташкента // *Скорая неотложная медицинская помощь*. – Тошкент: Медицина, 1966.
3. Ситникова А.А., Живко И.И. Кадры Ташкентской станции скорой помощи // *Скорая неотложная медицинская помощь*. – Тошкент: Медицина, 1966.
4. Скорая неотложная медицинская помощь. Сборник научных работ врачей Ташкентской станции скорой и неотложной медицинской помощи. – Тошкент: Медицина, 1966.
5. Берлинер Б.И. Материалы по организации своевременной транспортировки пострадавших в специализированные травматологические стационары. 1935.